

KO'Z TO'R PARDASI AJRALISHI KASALLIGINING HAVFLI JIHATLARI

*Urganch Abu Ali Ibn Sino nomidagi Jamoat
Salomatligi texnikumi o'qituvchisi
Matchanova O'g'iljon Yusupboyevna*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ko'z to'r pardasi ajralishi kasalligining sabablari, davolash va oldini olish bilan bog'liq tibbiy muolajalar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ko'z, to'r parda, oqibatli, davolash

Ko'z to'r pardasi ajralishi –xavfli oftalmologik kasallik bo'lib, ko'rlik va nogironlikka olib kelishi mumkin. Har yili 100 ming aholidan taxminan 10-20 kishida bu kasallik tashxis qilinadi. Bemorlarning 70% 20 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan odamlardir. Ko'z to'r pardasi ajralishining uch turi mavjud:

To'r parda yorilishi bilan bog'liq regmatogen ajralish.

Ko'z travmasi bilan bog'liq bo'lgan travmatik ajralish.

Ekssudativ ajralish — bu ma'lum bir ko'z kasalligi, to'r parda va tomirli qatlam o'smalari, turli xil yallig'lanish jarayonlarining natijasidir. Ko'z to'r pardasining regmatogen yoki birlamchi ajralishi ko'z to'r pardasining yorilishi va uning yuzasi ostiga suyuq tarkibining kirib borishi natijasidir. Uni qo'zg'atishi mumkin:

to'satdan qilingan harakatlar;

qattiq jismoniy ishlarni bajarish, og'irliklarni ko'tarish;

miya shikastlanishi;

haddan tashqari bosim;

yiqilish.

Ikkilamchi ko'z to'r pardasi ajralishi quyidagi hollarda kuzatiladi:

yallig'lanishli oftalmologik kasalliklar;

ko'z o'simalari;

qandli rinopatiya;

okklyuziv patologiyalar.

Ikkilamchi ekssudativ ajralish ko'z to'r pardasi ostida(subretinal bo'shliqda) suyuqlik to'planishi natijasida hosil bo'ladi. Ko'z to'r pardasining travmatik ajralishi-bu jarohatlar (shu jumladan operatsiyalardagi jarohatlar) natijasidir. Uning alomatlar har qanday vaqtda – zarba paytida, undan keyin yoki bir necha yil o'tgach paydo bo'ladi. Ko'z to'r pardasi ajralishining eng keng tarqalgan belgilari orasida quyidagilar bor:

yorug'lik hodisalari (bemor mavjud bo'lmagan zigzag chiziqlarini, yorug'lik chaqnashlarini, qora dog'larni ko'radi);

ko'zdagi og'riq;

ko'rishda xira "parda" hosil bo'lishi;

ko'rishning keskin pasayishi (bemor ertalab kechqurunga qaraganda yaxshiroq ko'radi);

yashirin g'ilyalik.

Bemorni tekshirish paytida shifokor vizual funktsiyalarni, ko'z o'tkirligi va ko'rish maydonlarini tekshiradi. Goldman linzalari (biomikroskopiya usuli) yordamida oftalmolog shishasimon tanada patologik o'zgarishlar mavjudligini (mahalliy qon ketishlar, destruksiya joylari, kordonlar) aniqlaydi. Ko'z ichi bosimini o'lchash uchun tonometriya o'tkaziladi. Bundan tashqari, quyidagilar amalga oshiriladi:

to'g'ridan-to'g'ri oftalmoskopiya;

teskari oftalmoskopiya;

B rejimida bemor ko'zining ultratovush tekshiruvi.

Ko'z to'r pardasi ajralishini davolash pigment epiteliyasini fotosensitiv retseptorlari (tayoqchalar va konuslar) bilan yaqinlashtirishga, yorilish zonasida joylashgan to'qimalar bilan to'r pardasining yopishtirishga qaratilgan.

Ko'z to'r pardasi ajralishida operatsiya turlari

Ko'z to'r pardasini olib tashlash bo'yicha operatsiyalar bugungi kunda ekstraskleral (skleral yuzada) yoki endovitreal (ko'z olmasi ichida) yo'l bilan amalga oshiriladi. O'z navbatida, ekstraskleral usul sklerani balonlash yoki to'ldirishni o'z ichiga olishi mumkin.

Ko'z to'r pardasi ajralishini ekstraskleral to'ldirish

Jarrohlik paytida jarroh silikon plombalarning (gubkalar) skleral yuzasiga tikadi. Sklerada bosilgan joylar hosil bo'lib, ular Ko'z to'r pardasi keyingi ajralishiga to'sqinlik qiladi to'plangan suyuqlikning asta-sekin rezorbsiyasi uchun maqbul sharoitlarni ta'minlaydi.

Ekstraskleral plomba turlariga quyidagilar kiradi:

sektoral;

radial;

sirkulyar.

Ajralgan to'r pardaning ekstraskleral balonatsiyasi

Shikastlangan sklerani balonlash balon kateterining yorilish zonasiga vaqtincha tikish orqali amalga oshiriladi. U skleraning chuqurlashishiga va suyuqlikning rezorbsiyasiga yordam beradi. Ajralgan to'r pardani endovitreal davolash

Endovitreal usullarga deformatsiyalangan shishasimon tanani olib tashlash va uni maxsus dori bilan almashtirishga qaratilgan vitrektomiya kiradi.

Lazer bilan davolash

Bugungi kunda lazer terapiyasi to'r pardaning ajralishini oldini olish uchun faol qo'llanilmoqda. Shuningdek, u boshqa jarrohlik usullari bilan birlashganda ajoyib natijalarga erishishga imkon beradi.